

**O‘zbekiston**  
**Metama’lumot**  
**Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar**

Ishlab chiqilgan sana: 23.06.2023

Oxirgi yangilangan sana: 23.06.2023

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonunni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umimlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma’lumotlarini taqdim etish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko‘rsatmalar berish va statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qo‘llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to‘g‘ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

### **0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma’lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvi ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma’lumotlarini va (yoki) ma’muriy ma’lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

### **0.1.3 Respondentlar individual ma’lumotlarining maxfiyligi**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma’lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma’lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma’muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

#### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

##### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo‘lgan hisobot va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma‘lumotlarini buzib ko‘rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar to‘g‘risida ko‘rsatkichlarini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 9 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari bo‘limlarida 7-13 nafar xodim shug‘ullanadi.

Xodimlar soni aholi turmush darajasi statistikasi bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni shakllantirish uchun qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma‘lumotga ega bo‘lib, kamida 2 yilda bir marta Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida o‘z malakalarini oshiradilar.

Boshqarmada kompyuterlar soni yetarli bo‘lib, har bir xodim alohida kompyuter bilan ta‘minlangan. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internet tarmog‘iga kirish imkoniyatiga ega. Har bir mutaxassis (intervyuer) elektron qurilma (planshet) bilan ta‘minlangan.

Moliyaviy mablag‘lar statistika dasturi doirasida taqdim etiladi va ushbu dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish uchun yetarlidir.

## 1. Begʻarazlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan begʻarazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika boʻlimlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil boʻlib, bevosita vakolatli davlat organiga boʻysunadi.

Mazkur statistik maʼlumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yoʻl qoʻyilmagan va kasbiy mustaqillik toʻliq taʼminlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi eʼtiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan oʻquv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan oʻquv kurslari, oʻquv-amaliy seminarlarda ishtirokini taʼminlash orqali taʼminlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan oʻquv kurslarida maʼruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini eʼlon qilib borish tashkil etilgan.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini taʼminlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida maʼlumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan maʼlumotlarni birlashtirish, maʼlumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bogʻlashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy maʼlumotlar toʻplamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika maʼlumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika maʼlumotlarining sifati toʻgʻrisida metamaʼlumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### 1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (<https://stat.uz>) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

## 1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

## 1.3. Axloq me'yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

## 2.1 Konsepsiya va tushunchalar

### 2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hisoblash metodologiyasi Milliy hisoblar tizimi (MHT) – 2008 ning xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 13- iyuldagi 25-sonli qarori) "Aholining umumiy daromadlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" hisoblanadi.

## 2.2 Statistik qamrov

### 2.2.1 Statistik qamrov

#### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar to'g'risida ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini qamrab oladi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hisoblash choraklar va yil uchun yig'ilib boruvchi (hisobot yili boshidan o'sib boruvchi) usulda amalga oshiriladi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar bo'yicha ko'rsatkichlarning keng qamrovini ta'minlab beruvchi yillik hisoblashlar choraklik baholashlar uchun asos bo'ladi. Choraklik

baholashlar ko'rsatkichlarning joriy o'sish sur'atlarini tavsiflash uchun amalga oshiriladi va yillik hisoblash jarayonida aniqlashtiriladi. Ayrim hollarda o'tgan davr ma'lumotlari bilan tahlil qilinib aniqlik kiritiladi.

#### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Statistik qamrovdan istisnolar mavjud emas.

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Mavjud emas.

### 2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

#### 2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq ravishda, qismlarga ajratish maqsadida umumiy daromadlar, qoidaga ko'ra "birlamchi daromadlar" va "transfertlardan olingan daromadlar"ga bo'linadi, bu o'z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liq holda institutsional o'zgarishlarning ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

### 2.4 Hisobga olish asoslari

#### 2.4.1 Baholash

Milliy hisoblar tizimi (MHT) - 2008 ning xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga hamda ilg'or xorijiy tajribalarga mos keladi.

#### 2.4.2 Hisobga olish asosi

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar Milliy hisoblar tizimi (MHT) - 2008 ning xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga hamda ilg'or xorijiy tajribalarga muvofiq hisoblanadi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlarni hisoblash bo'yicha ma'lumotlar manbalariga quyidagilar kiradi:

- statistika kuzatuvlari ma'lumotlari;
- idoraviy (ma'muriy) ma'lumotlar;
- uy xo'jaligi tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari.

#### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Statistika agentligining metodik qo'llanmasi asosida amalga oshiriladi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2022 yil 13 iyuldagi 25 son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) Aholi jon boshiga real umumiy daromadlarni hisoblashda asos bo'lib xizmat qiladi.

### 3. Aniqlilik va ishonchlik

#### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

##### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hisoblashda statistika hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

##### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Aholining umumiy daromadlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga muvofiq, statistika agentligi tomonidan respublika va hududlar bo'yicha aholi jon boshiga real umumiy daromadlar yillik va choraklik asosda hisoblanadi.

##### 3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Statistika dasturida belgilangan muddatlarda ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha jami respublika bo'yicha, viloyatlar kesimida ishlab chiqariladi. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davridan keyingi oyning 22-sanasida tayyorlanadi.

#### 3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

##### 3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar to'g'risida ko'rsatkichlarini shakllantirishda ma'lumotlar manbai o'zaro baholanadi, ular o'rtasida nomuvofiqliklar yuzaga kelganda ularning sabablari bo'yicha aniqlik kiritiladi va kelgusida shu kabi holatlarni oldini olish uchun olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, nazoratdan o'tadi. Tasniflash hamda nazoratda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.



### 3.3 Statistika usullari

#### 3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari

Olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi, tahlil qilinadi, nazoratdan o'tadi. Tasniflash hamda nazoratda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

#### 3.3.2 Boshqa statistika jarayonlar

Yo'q.

### 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

#### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Yo'q.

#### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Yo'q.

#### 3.4.3 Yakuniy statistika ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlansa, keyingi nashrlarda bu ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

### 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

#### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida aks etadi. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar yillik (dastlabki) baholash hisobot yili yakunlangandan so'ng 22-kuni taqdim etiladi. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar (yakuniy) ushbu baholanishi hisobot yilidan keyin 6 oydan so'ng yillik statistika hisoboti ma'lumotlari asosida qayta ishlanadi.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik

Davriylik va muddatlilik ma'lumotlarni tarqatishning umume'tirof etgan standartlariga javob beradi. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar: hisob-kitoblar respublika va hududlar bo'yicha har chorakda hamda yillik amalga oshiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish va yillik ma'lumotlarni tarqatish Statistika dasturi asosida ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimiga muvofiq amalga oshiriladi.

### 4.2 Qiyosiylik

#### 4.2.1 Ichki qiyosiylik

Yo'q.

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Yo'q.

#### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Sektorlar va tarmoqlar bo'yicha muvofiqlik mavjud emas.

### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

#### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Yillik statistik ko'rsatkichlar ma'lumotlari Statistika dasturida nazarda tutilgan muddatlarda yangilanadi.

#### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar bo'yicha ma'lumotlar Statistika dasturida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

#### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Yo'q.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar bo'yicha ma'lumotlar foydalanuvchilarga Statistika agentligining saytida (<https://stat.uz>) taqdim etiladi shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning so'roviga asosan taqdim etiladi.

## 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Mavjud emas.

### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

### 5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Mavjud emas.

### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Mavjud emas.

## 5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Ushbu ko'rsatkich Statistika agentligining rasmiy veb-saytida (<https://stat.uz>) jamoatchilikka oldindan e'lon qilingan rasmiy statistikani e'lon qilish taqvimini hamda yillik Statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq e'lon qilinadi.

## 5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar ma'lumotlari barcha foydalanuvchilar uchun Statistika agentligining rasmiy veb-saytida (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>), Ochiq ma'lumotlar portalida (<https://data.egov.uz/>), SIAT statistika portalida (<https://siat.stat.uz/>) xabar berilgan.

## 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishida, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuvlarga asosan amalga oshiriladi.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Statistika agentligining veb-saytining INTERAKTIV XIZMATLAR saxifasida USLUBIY MATERIALLAR bo'limida, statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar joylashtirilgan.

## 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

### 5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy nashrlarda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan aloqa bog'lash bo'yicha manzillar (pochta, telefon, faks, elektron manzillar va h.k.) ko'rsatib qo'yiladi.

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistika kuzatuvlarining vositalarini (shakllari va anketalari) takomillashtirish.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Yo'q.

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Yo'q.

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Yo'q.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Yo'q.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Madaminov Umid Kanjaboevich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028166
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	<a href="mailto:u.madaminov@stat.uz">u.madaminov@stat.uz</a>